AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA OBYEKTIV ZARURLIGI

Abdullayeva Ozoda Sa‘dulla qizi
71010401 “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi
2-bosqich magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20280900

Annotatsiya. Bu maqolada hududlarda qishloq xo‘jalıgı tarmoqlarıda hududiy agroturızm sohalarını rıvojlantırishnıng ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va obyektiv zarurligi o‘rganilgan. Shuningdek agroturizm tushunchasiga nazariy jihatdan yondashilgan. Agroturizm – turistlarni yoki tashrif buyuruvchilarni hududda qishloq xo‘jaligi uchun maqsadli foydalaniladigan hududlarga jalb etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Turizm, agroturizm, agroturizm, turistik infratuzilma, urbanizatsiya qishloq xo‘jaligi.

Agroturizm sayyohlik bozorida alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, 2019-yilda boshlangan pandemiyadan so‘ng sayyohlik bozorining yetakchi va faol rivojlanayotgan tarmoqlardan hisoblanadi. Agroturizm hududlarning iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanishi, aloqa kommunikatsiyalarining oshishi, ekotizimni asrash, tabiiy ne’matlarni iste’mol qilish, aholi daromadini oshirish, aholining ommaviy madaniyatini rivojlantirish, hududiy turistik infratuzilmasini rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligida yangi xizmat turlarini targ‘ib qilish, aholining daromadini oshirish, aholida ishsizlik darajasini kamaytirish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyati yanada kengayadi.

COVID-19 pandemiyasi aholining katta qismini ochiq toza havoga, tabiiy oziq-ovqatlar, kasallikdan keyingi reabilitatsiya uchun talab ortmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizdagi mavjud qishloq xo‘jaligi tajribasidan oqilona foydalanish, undagi kamchiliklarni bartaraf etish va aholini yashash sharoitini yaxshilash zarur.

Manbalarda qishloq turizmi va agroturizm sinonim ta’rif sifatida ishlatiladi. Agroturizm sohasining jozibadorligi hududlarda ekotizimning mavjudligi, aholining etnografik jihatdan o‘ziga xosligi, dehqon va fermer xo‘jaliklari, agroklasterlarning rivojlanishi, ekologik kimyoviy moddalarsiz ekomahsulotlar (organik) yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab-chiqarish, aholining ayniqsa, ayollar va yoshlarni ish bilan ta’minlanishi bilan baholanadi. Shuning uchun ham ekoturizmning bir qismi sifatida agroturizm iqtisodiy-noiqtisodiy xususiyatlar, xalqaro va milliy darajadagi yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etgan faoliyat sohasi sanaladi. Agroturizmning rivojlanishi yigirmanchi asrning 70-yillarda boshlangan bo‘lib,aholining asosiy qismi qishloqdan shaharga ommaviy chiqishini to‘xtatish maqsadida joriy etila boshlangan. Ya’ni urbanizatsiya jarayonini sekinlashtirish yokito‘xtatish maqsadida hududlarga turistlarni jalb eta boshlangan.

Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish eng qoloq qishloqlar va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishning qayta taqsimlovchi namunaviy vositasi hisoblanadi.

Ma’nbalarda olimlar birinchi bo‘lib “Ekoturizmning o‘ziga hos jihatlari”ni o‘rganishgan. Tadqiqotchi olim V.V.Xrebovchenko fikricha “ekoturizm” so‘zining tushunchasi “ekologik turizm” so‘zining qisqartirilgan, lekin uni ishlatilishi ekologiya fani nuqtai nazaridan unchalik to‘g‘ri emas deb yozgandi. Ekoturizmning birinchi va to‘g‘ri tushunchasini G.S.Gujin, M.Yu.Belikov va Ye.V.Klimenko 1997- yilda “Ekoturizm asosida tabiatni

muhofaza etish,asrash yo‘llarini o‘rganish yotadi”deb tavsiflagan, bunday sayyohatda dastlab kam sonli sayyohatchilar guruhinitabiatga chiqib, tabiiy resurslarni muhofaza etish bo‘yicha har turli loyihalarni amalga oshirish uchun qilgan ishlarni tushuniladi. Bu tushuncha xalqaro ekoturizm jamiyatining tushunchasiga ham to‘g‘ri kelib, unda yozilishicha, ekoturizm- “tabiat mintaqalariga mas’ul sayyohat bo‘lib, unda mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli muhofaza etiladi”

Qishloq hayotidan, toza havoda, shahar hayotidan bir muddat uzoqlashib, dam olishni istovchilar uchun turizm turi sifatida yoki fermerlarning foliyatini, ularnig tajribalarini o‘rganish, yer, dehqon xo‘jaligi, chorvachilikdan zavqlanish, tomosha qilish mumkin. Ayniqsa bunda 3-12 yoshdagi bollarga katta ishtiyoq beradi. Shu bilan birga yetishtirilgan mahsulotlardan qishloq aholisi bilan birgalikda turli ovqat,yegulik, sharbatlarni tayyorlanish jarayonlarida ishtirok etishlari mumkin. Bu ham tashrif buyurgan turistlarning qishloq hayotini his qilish imkoniyatiniberadi.

Agroturizm – bu turistlarning tashrifidan asosiy maqsadi yetishtirilayotgan uy hayvonlarini o‘rganish, bog‘dorchilikning uzumzor, olmazorlar, issiqxonalarda qish mavsumida yozgi mahsulotlarni ta zavqlanish kabi o‘ziga xos qishloq xo‘jaligiga qaratilgan faoliyat turi bilan shug‘ullanish yoki uni o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Fermer xo‘jaliklarida turizm fermerlarga o‘z faoliyatini diversifikatsiya qilish, mahsulot va mulk qiymatini oshirish imkonini beradi. Fermer xo‘jaligiturizmi, shuningdek, fermerlar hal qiluvchi rol o‘ynashda davom etayotgan yerni kompleks boshqarish orqali fermerlik manfaatlarini va atrof-muhitni muhofazaqilishni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Shuni alohida etiborga olish zarurki, turistlar fermalarga borishganida, boshqa turdagi joylashtirish vositalaridan emas, balki mehmon uylari yoki fermerlarlarga yaqin qishloqda joylashgan xonadonlarda yashashni, xonadon egalari bilan birgalikda xonadonning ish faoliyatini yaqindan o‘rganishni, uy egalari bilan an’anaviy hunarmandchilik va ko‘nikmalarni o‘rganishlari, do‘stlar orttirishlari mumkin bo‘lgan haqiqiy qishloq muhitini izlaydilar. Bunda zamonaviy sharoitlar unutilib, eng avvalo, uyda tayyorlangan taomva ichimliklardan zavqlanishi muhim. Har bir hududning maxsus oziq-ovqat yorliqlari iste’molchilarga mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga yordam beradi,uyda yetishtirilgan sifatli taom va ichimliklarni iste’mol qilishni xohlaydigan sayyohlar uchun savdo nuqtasi sifatida foydalanish mumkin.

Agroturizm “bu qishloq xo‘jaligi va turizm – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari vaxizmatlari uchun yangi, foydali bozorlarni ochish va yirik mintaqaviy bozor uchun sayohat tajribasini ta’minlash uchun ikkita murakkab sanoatning elementlarini birlashtirgan gibrid tushunchadir. Agroturizm – qishloq turmush tarzi va landshaftini saqlashga yordam beradi, shuningdek, “barqaror” yoki “yashil” turizmni ta’minlash imkoniyatini beradi. Agroturizmni qishloq turizmining bir qismi sifatida aniqlash mumkin va fermerlar va qishloq aholisi o‘z bizneslari qo‘shimcha daromadolish uchun o‘z hududiga sayyohlarni jalb qilish maqdsadida ko‘rsatadigan bir qator tadbirlar, xizmatlar va qulayliklarni o‘z ichiga oladi. Mazkur olimlarning fikrlari va ta’riflaridan xulosa qilib shuni ta’kidlashzarurki, agroturizm – qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, qishloqning turmush tarzini, qishloqlarning tarixiy an’analarini, kiyimlarini, maxsus taomlarini,tabiiy landshaftni asrash va qishloq xo‘jaligida faoliyat olib boruvchilar uchun qo‘shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Mamlakatimiz uchun hududlarda agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq yoshlarini ish bilan ta’minlash, agroxizmat turlari va sifatini oshirish va shu orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini ko‘paytirish mumkin. Bu o‘z o‘rnida qishloqlarni shaharlashtirib yubormasdan, mavjud imkoniyatlardan foydalanish va ixtisoslashuvini hmsobga olgan holda aholini yashash sifati yaxshilanishi, ularni xalqaro tajribaga ega bo‘lishlari, turistlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, tajriba almashish va xorijiy tillarni o‘rganish uchun katta ijobiy turtki bo‘lishi mumkin.

Agroturizm sohasi turistik kurortlarga nisbatan arzon muqobil soha sifatida paydo bo‘ldi. Qishloq turizmi, birinchi navbatda, hududlarda, tabiiy landshaftlar saqlanib qolgan, o‘zining individual taomlari, dehqonchilik, chorvachilik, hududda sanoat rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi (AQSHda – 4 foiz, G‘arbiy Yevropada – 2-3 foiz). Respublikamizda qabul qilingan “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi”da qishloq turizmiga qishloq xalqining turishi, urf-odatlari, an’analari bilan yaqindan tanishish” deb ta’rif berilgan.Agroturizm uchun esa ta’rif keltirilmagan edi.

Agroturizm – bu sayyohlar uchun turistik hududlarning o‘ziga xos tabiiy va milliyligini aks ettiruvchi keng qamrovli turistik mahsulotlar (turar joy, ovqatlanish, diqqatga sazovor joylariga maqsadli sayohatlarni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatturi) hisoblanadi.

Agroturizm tushunchasining mohiyati turli manbalarda turlicha ochib berilgan, jumladan ba’zan agroturizm va boshqa turizm turlari bilan o‘xshash bo‘lgan ta’riflarni ham ko‘rish mumkin. Agroturizm bir qancha turizm turlari bilan chambarchas bog‘liq, jumladan, qishloq turizmi, yashil turizm, ekoturizm, enoturizm, etnik turizm yo‘nalishlari o‘zaro to‘ldirib turadi.

Agroturizmning ayrim manbalarda qishloq turizmi deb ham ataladi va ekoturizmning bir bo‘lagi sifatida o‘rganilib, 2019–2020-yillardagi pandemiya davrida Butunjaxon turizm tashkiloti (UNWTO), oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotlari (FAO) qishloq turizimiga alohida e’tibor karatib, hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantiruvchi yo‘nalish sifatida e’tibor qaratdi va ko‘plab loyiha takliflarini aynan qishloq turizmi mavzusi bilan bog‘ladi. Qishloq turizimi hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish manbasi, hududlarning urbanizatsiya jarayonlarini kamaytirish yo‘li sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Petrova M.V. Phd, Associate Professor, “Native and foreign attempt of development of rural areas on basis of common self-management and rural tourism” Altai state agrarian university, Barnaul, Russia 2020u
2. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Sciyentific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
3. Donatella Privitera “The importance of organic agriculture in tourism rural” University of Catania Journal ofHeritage Tourism 2010 y.
4. George, E. Wanda, Mair, Heather, Reid, Donald “Rural Tourism Development Localism and Cultural Change”book, 2009 y Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institut ma’lumotlari
5. World Tourism Organization (UNWTO) Tourism highlights report. 2015 edition.
6. World Tourism Organization (UNWTO) Tourism highlights report. 2018 edition.
7. Tosheknt viloyati rasmiy statistika qo‘mitasi. https://www.toshvilstat.uz/uz/rasmiy-statistika
8. Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. - T.: Fan, 2011 113-114 bet.
9. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari - T.: Fan va texnologiya, 2016. - 184 b.
10. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari// Monografiya. – Toshkent: Iqticod, 2015 - 300 b.